

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 3

Jurnal 2003-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab fizika-matematika fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab siyosiy fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli qaroromuz bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'lg'in Hasanovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Maxriyxo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minia V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.F., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Mubabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Rahmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Dardiyev Dardimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjenovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamsajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yatakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Qaravatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Armedova Shehira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Tozirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Oshlova G.K.	Bolalar adabiyatida plottoning diskurs tarqalishida uslub va ma'no adekvatligi	126
Jumshayev A.A.	Ўзбек ва немис баллид матнларида ориентопоэтикаларнинг ма'но оттенкалари	132
Murtazoyev O.N.	Intertekstuallikning tilshunoslikda qo'llanilishi	136
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
O'rayeva D.S., Adizova O.I.	Folklore in the context of modern culture	140
Eshonqulova G.T.	Badiiy asarda ma'noni implicit ifodalashning kommunikativ strategiyalari	149
Kurbayev S.S.	"Utkin kunlar" romaniida oqim otalar obrazi talqini	154
Muhammadova M.M.	"Ko'likan" tasvili bilan she'rlar yozgan Shayboniy hukmdor talqini	158
Ganieva O.Kh., Rajabova Z.T.	The concept of the motif of loneliness in 20th century American literature	163
Sultonova D.S.	Ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi prozaiik asarlar taraqqiyoti	167
Umarov U.A.	Characteristic features of hero archetype in the example of Harry Potter	171
Umurova N.R.	"Iqomoma" va islom falsafasi	176
Urmonova N.M.	The deontology of translation and interpretation	181
Babayev O.A.	Jaloliddin Rumi asarlarining arab tiliga qilingan tarjimalarda g'arb tarjimalari ta'siri	186
Batrovna M.A.	Balid adabiyatida kasalliklar ramzi	191
Boqarova M.A.	Puti razvitiya russkogo realizma rubzha xix-xxi vekov: ot soprrealizma do eksistentsional'nogo postrealizma	196
Jamshayeva B.S.	Ўзбек ва турк болалар adabiyatidagi muhtarak tuygular	203
Nuriddinova Sh.S.	Hamza Imomberdiyev she'riyatida g'amzilik va erk motivi ifodasi	210
Rajabova P.Z., Rajabova G.Z.	Ertaq janri stilizatsiyasining asoslari va taraqqiёт xususiyatlari	215
Usmonova Z.H.	Rey Bredberning "Marsga hujum" ("Марсианские хроники") asarida tarjima xususiyatlari va tarjimon uslubi	221
Sadigova N.E.	Romanticism of Byron and his work "Cain"	227
MA'NSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Maqsudova N.U.	Ziyovuddin Haziniy she'rlarining manbalari "NAVQY GULSHAN"	233
Rajabova M.B.	Риёзу ушбу касал дафъан эт ...	237
PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS		
Bahronova B.B.	Abduruf Fitratning asloqiy-tarbiyaviy qarashlari	240
TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY		
Muminov D.A.	Samarqandga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari va ularning faoliyati	244
Rahmatulloyev M.X.	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda umumiy asborot vositalarining tarixi va rivojlari sh bosqichlari	249
Xakimov J.N.	Busoro amirligi va Rossiya imperyasining savdo-sotiq munosabatlarining yo'lsa qo'yilishi	253

REY BREDBERNING "MARSGA HUJUM" ("МАРЧАВСКИЕ ХРОНИКИ") ASARIDA
TARJIMA XUSUSIYATLARI VA TARJIMON USLUBI

Usmonova Zarina Habibovna,

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrası katta o'qituvchisi

zarin_1908@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada tarjima turlari va ularning tarjimon tomonidan asar tarjimasida nurlicha foydalanilishi, shuningdek, bu jarayonda asar tarjimasining aslyat mazmun mohiyatini buzmaslik uchun tarjimonning o'ziga xos uslubi haqida so'z boradi.

Tarjimon uslubi nafaqat til imkoniyatlarini qamrab oladi, balki aslyat, bivoosita va bevosita tarjima xususiyatlarida lingvomadaniy xususiyatlarni ham qamrab olishni, aslyatdagi ruhni to'laqonli buzmasdan kitobxon tilga tarjima qilishda bivoosita tarjimaning ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, fantastik asarlar tarjiması nafaqat adabiy, lingvistik, madaniy xususiyatlarni qamrab oladi, balki ular tarjima jarayonida sohavty terminologik muhitni yaratadi. Rey Bredberning "Marsga hujum" asari bivoosita tarjiması shunday asarlar sarasiga kiradi.

Ключевые слова: tarjimon, tarjima, leksik birlik, grammatik transformatsiya, uslub, tasviriy ifoda, transliteratsiya, transformatsiya, muqobil, kalkalash, obrazli tarjima.

Аннотация. В данной статье раскрывается представление о видах перевода и их различном использовании переводчиком при переводе произведения, а также о специфическом стиле переводчика, чтобы в этом процессе не нарушалось оригинальное содержание перевода произведения.

Стиль переводчика охватывает не только языковые возможности, но и языковые и культурологические особенности оригинала, непрямого и прямого перевода, причем ясно видна важность косвенного перевода в переводе оригинала на язык читателя без полного разрушения духа. В частности, перевод фантастических произведений охватывает не только литературоведческие, языковые, культурологические особенности, но и создает полемику терминологическую среду в процессе их перевода. Одной из таких работ является не прямой перевод «Атаки на Марс» Рей Бредбери.

Ключевые слова: переводчик, перевод, лексическая единица, грамматическая трансформация, стиль, образное выражение, транслитерация, трансформация, альтернатива, калькирование, образный перевод.

Abstract: This article reveals the types of translation and their different uses by the translator when translating a work, as well as the specific style of the translator, so as not to affect the original content of the translation of the work in this process.

The style of the translator covers not only linguistic possibilities, but also the linguistic and cultural features of the original, indirect and direct translation, and the importance of indirect translation in translating the original into the language of the reader without completely destroying the spirit is clearly visible. In particular, the translation of fantastic works covers not only literary, linguistic, cultural features, but also creates a field terminological environment in the process of their translation. One such work is an indirect translation of Ray Bradbury's Attack on Mars.

Key words: translator, translation, lexical unit, grammatical transformation, style, imaginary expression, transliteration, transformation, alternative, tracing, figurative translation.

Кирish. Til rivoji bilan bog'liq jarayonlar, ayniqsa, tarjima sohasi jadal rivojlanmoqda. Adabiyotimizga kirib kelayotgan inglizcha yozuvchilar ijodidan o'zbekchaga o'girilgan asarlar katta miqdorni tashkil etadi. Hozirgi globallashuv jarayonida tarjima qardosh xalqlar tillari hamda xorijiy tillarni o'rganishning muhim shartlaridan biri sifatida o'quv jarayonida barcha bog'ichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchi va talabalarning o'rganilayotgan tillarni emas, ona tili hoditalarni ham ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Biz yashab turgan jamiyatdagi hayot jabhalarni qamrab olgan taraqqiyot va ilmiy-texnik taraqqiyot va u bilan bog'liq bo'lgan xalqaro hamkorlik va kelibayotgan

LITERARY CRITICISM

demografik rivojlanishlar va boshqa mavjud bo'lgan muhim tammadunlar davlatlararo aloqani va har xil tilda gaplashuvchi elat va millatlar jamiyatining rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayon bevosita adabiyotni ham cheklab o'tmaydi. Hmdan, texnika va kompyuter jadallashuvi asrida olamshumul kashfiyotlarning paydo bo'lishi turli adabiyotida ham aql bovar qilmaydigan xayolotlar olamiga mansub fantastik asarlar yaratilishi [1,1], ularning boshqa tillarga tarjima qilinishi ham tarjima sohasida, ham adabiyot sohasida ulkan burilishlarni yaratdi. Xususan, o'zbek tilida ham boshqa xalqlar tillaridan o'girilgan bilvosita tarjima namunari adabiyot idomamlari qalblaridan birdak joy olgan.

Ulardan ayrimlarining nomlarini tilga oladigan bo'lsak, yuqorida eslatilgan asarlar tarjimalaridan tashqari ingliz adabiyotidan yana Jeyms Grizvudning «Jaldur kiyimli bola» (1961, N. Turmuhommedov tarjimasii), A.Konan Doyning «Chipor kanta» (1963, V. Ruzimatov tarjimasii), «Sherlok Xolms haqida hikoyalar» (1963, M. Mirzoidov), «Baskervillar iti» (1971, N.Xabibullayev), R. Kiplingning «Maugli», U. Nerberrning «Ko'rinnas odam» asarlari (1961, R.Komilov), Garriet Bicher Stouming «Tom tog'ning kulbasii», R.Stivensonning «Xazinalar orolii», G.Neggardning «Blouxolm sohibasi»(1975 N.Shonirzayev), Jeyms Oldrijning «Dengiz shunqori» romani (1977, E. Mirobidov), Amerika adabiyotidan Jek Londonning «Martin Idam» (1968, K.Mirzaxommedov), «Uch qalbi» romanlari va hikoyalar to'plami (1958, F. Abdullayev), Mark Twanning «Tom Sawyerning boshidan kechirganlari va Geld-berrri Fanning boshidan kechirganlari», «Shaxzoda va gadon» hamda «Janna d'Arko» (1965,R.Komilov), Oliver Tvist romanlari, Teodor Drayzerning «Baxtiqaro Kerrri», «Amerika fojiasii» romanlari (1976, U. Uemonov), F.Kuperning «So'nggi Moqikam» (1973, E. M. irobidov), «Chingachlik ulkan ilon» (1971, E. Mirobidov) romanlari, Ernest Xemingvayning «Alvido, quroll» kabi romanlar shoh tarjima asarlar hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilidan o'zbekchaga bevosita tarjima qila oladigan haqiqiy mutaxassis san'atkorlarning yuqiligi sababli ingliz tilida ijod qilgan mualliflar asarlari o'zbek tiliga hamon rus tili orqali o'girilmoqda. Bu tarjima jarayonida muqarrar yo'l qo'yiladigan muqsonlar muqodorning ilddi baravar oshib ketishiga olib kelmoqda. Biroq ko'pchilik mohir tarjimonlarimiz asarlar ruhiga chuquroq kirib borish va bu ruhniyatni o'zbek tiliga yuqori mahorat bilan talqin etish vositasida tarjima yo'qasurlar oldiga ma'lum darajada parda tutib kelmoqdalar.

Zero, mustaqillikdan keyingi yillar mamlakatimizda bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish jarayoni boshlab yuborildi. Bu sa'y-harakat o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilroq tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tadqiq uchun ham shubhasiz zaruriy material hozirlay oladi, degan umiddamiz.

Tadqiqot ob'ektri va qo'llanilgan metodlar. Mamlakatimizda ko'p asrluk tarixiy davr mobaynida juda katta badiiy-adabiy, tarixiy, xilqoiy, falsafiy, ilmiy, diniy asarlar o'zbek tiliga o'girildi. Bu ilmiy izlanishlar mahsuli o'laroq, tarjima adabiyoti rivojlanib, xalqimizning g'oyaviy-estetik ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yurtimizda adabiyotimiz tarixining katta ulushini tashkil etadigan bunday boylikni ilmiy-tanqidiy o'rganib, natijasini tarjima amaliyotiga joriy etish tarjimaachilik ishining yuqori saviyasini belgilaydi.

Xususan, tarjimonimiz Amir Fayzulla tarjimasiga mansub Roy Bredberning "Maraga hujum" romani ham bilvosita tarjima namunasi bo'lib, ruschadan o'zbek tiliga o'girilgan. Tarjima jarayonida, odatda muqobillar ma'nosi ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'ladi, ammo lug'atga murojaat qilish ham muhimdir. Tarjima xususiyati tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi shart. Aks holda tarjimon "tarjimonning soxta do'stlari" tuzog'iga tashishi muqarrar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asiyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli so'zlarning ishlatishi va tillararo lekuk xususiyatlar, madaniy xususiyatlar hisobga olinadi.

Asar tarjimasini o'qir olamiz, tarjimon fantastika idomamlarini synan yozuvchi sehani va xayoloti bilan kosmik parvozga undashi, undagi mo'jizaviy tassurotlarni, tasvirlarni muassavir chingisiday asiyatdan emas, balki tarjimadan o'girgani bir qadar o'quvchini olis samo sari sayohat qilishga boshlashi, ajb fantastik ruhni kashf qilishda stilistik unsurlardan oqilona foydalanishi, o'quvchiga asiyatni ruhini saqlab qolishdagi harakatlari murakkab jarayoni kasb etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Asar tarjimasii xususiyatlari haqida so'z berganda, birgina asar boshidagi "Yanvar 1999 Raketa yozi" deb nomlanuvchi qismida Ogayoda qish tasvirining yozga aylantirishidagi yozuvchi tasvirlari ruscha tarjimada qanday o'girilgani yoki bo'lmasa bilvosita o'zbekcha tarjimasida qanday farqlar namoyon bo'lganini tahlilga tortganimizda ko'ramiz.

LITERARY CRITICISM

Matnlan, "One minute it was Ohio winter, with doors closed, windows locked, the panes blind with frost, icicles fringing every roof, children skating on slopes, housewives lumbering like great black bears in their furs along the icy streets." [2,4]

"Только что была огайская зима: двери закрыты, окна закрыты, стекла непроницаемы от мороза, все крыши оторочены сосульками, дети играют с горки на лыжах, женщины в шубах черными медведицами бредут по гололедным улицам." [5,6]

"Hozirgina Oqayo qishi hukuron edi: eshik va derazalar toq-toq yopilgan, oynalarni qaltn qrov bosgan; tomning qirralaridan nayzastmon sumalaklar osilib tushar, bolalar tepaliklardan chang'larda o'qdek uchir, qora ayiq mo'ynasidan tikilgan po'stini ayollar strpanchiq ko'chalarda kezinar edilar." [6,3]

Ushbu misolda "One minute" ruschada "Только что..." bilvosita o'zbekcha tarjimasida esa "Hozirgina" ma'nolarida qo'llanilgan. Har uch tilda turli ma'no kasb etishi va asllyat kontekstida "ayman o'sha lahza"ni ifoda etishi, o'zbekchasida asl ma'nasiga emas, balki ruscha bilvosita tarjimasiga murojaat qilinganini ko'ramiz.

Shuningdek, tahlil jarayonida o'zbekcha tarjima xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, shu o'rinda tarjimaning grammatik transformatsiyalarini – grammatik va leksik ko'rinishlarini kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Ba'zi vaziyatlarda ular bir-biriga mazmunan bog'lanib, leksik-grammatik xarakterga ega bo'ladi.

Matnlan, "And then a long wave of warmth crossed the small town. A flooding sea of hot air; it seemed as if someone had left a bakery door open. The heat pulsed among the cottages and bushes and children. The icicles dropped, shattering, to melt. The doors flew open. The windows flew up. The children worked off their wool clothes. The housewives shed their bear disguises. The snow dissolved and showed last summer's ancient green lawns" [2,4].

"И вдруг могучая волна тепла прокатилась по городу, как горячего воздуха залистнула его, будто нечаянно оставили открытой дверь пекарни. Зной омывал дома, кусты, детей. Сосульки срывались с крыши, разбивались и таяли. Двери распахнулись. Окна раскрылись. Дети скинули свитера. Маманы сбросили медвежьи оболочки. Снег испарился, и на газонах показались прошлогодняя зеленая трава" [5,6].

"To'sandan issiq havo to'liqni shahar bo'ylab yoyildi, maddi tasodifan ochiq qolgan nonvoyxonani eshigidan chiqqan hovar singari hammayoqni issiq havo qoplad. Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egulari ho'l bo'ldi. Tomlardan sumalaklar ustilib tushar, yerga tushib mayda-mayda bo'lar va erib ketar edi. Eshiklar lang ochildi. Osmonda bulaning choki so'kildi. Bolalar egularidan sviterlarini yechib otdilar. Onajonlar ham ayiq mo'yna po'stinlarini yelkalaridan tashladilar. Qor erib, o'iloqzorda bulnargi mayxalar mung'ayib ko'rinadi" [6,3].

Tarjima xususiyatlarini tahlil o'tirga olar ekanmiz, asl matnning leksik-grammatik xususiyati tarjimadan farq qilishini, bunda tarjima transformatsiyadan foydalanilganligining sababi shundaki, rus yoki o'zbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi hamda gapda so'z tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ortqash gap tarkibidagi farqdir. Asllyatda qishning izg'irin tasvirdan iliq tabiat tasviriga o'tishning berilishi "And then a long wave of warmth crossed the small town. A flooding sea of hot air; it seemed as if someone had left a bakery door open. The heat pulsed among the cottages and bushes and children" sodda voyiq gaplar bilan berilgan bo'lsa, ruscha tarjimadan o'zbekchada o'girilganda "И вдруг могучая волна тепла прокатилась по городу, как горячего воздуха залистнула его, будто нечаянно оставили открытой дверь пекарни. Зной омывал дома, кусты, детей" – "To'sandan issiq havo to'liqni shahar bo'ylab yoyildi, maddi tasodifan ochiq qolgan nonvoyxonani eshigidan chiqqan hovar singari hammayoqni issiq havo qoplad. Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egulari ho'l bo'ldi" teng bog'lanishli sodda gaplar "yergul" bilan ajratilgan. "A flooding sea of hot air;" – ushbu qisim gapning ikkinchi qismiga tegishli emasdak, muqatal yergul bilan ajratilib go'yo davomi ma'no jihatdan unga bog'lanmagandek, ammo aslida "Issiq havo oqintirav" natijasida qanday holat tuzmin qilinishi aks etgan, "a long way of warmth crossed the town" bilvosita o'zbekcha tarjimasida esa "И вдруг могучая волна тепла прокатилась по городу" – "To'sandan issiq havo to'liqni shahar bo'ylab yoyildi" kabi tarjima qilinish, "the town" ingliz tili matnida toldiruvchi, o'zbekcha tarjimada ruschadan o'girilganda "shahar bo'ylab" hol vazifasida kelgan.

Bilamizki, tarjimada biror bir so'z tarkimi boshqa bir so'z tarkimi bilan o'zgartirilishi mumkin. Bu to'liq yoki qisiman transformatsiyalarga bog'liqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, fe'l va ravish bilan almashinishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu parchada bilvosita o'zbekcha tarjimaning "Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egulari ho'l bo'ldi. Tomlardan sumalaklar ustilib tushar, yerga tushib mayda-mayda bo'lar va erib ketar edi. Eshiklar lang ochildi." – "Зной омывал дома, кусты, детей. Сосульки срывались

LITERARY CRITICISM

с крыш разбивались и таяли. Двери распахнулись. Огни раскрылись – “The heat pulsed among the cottages and bushes and children. The icicles dropped, shattering, to melt. The doors flew open. The windows flew up.” quyidagi parchada o'zbekcha tarjima bilvosita ruschadan o'girilganda ruscha bevosita tarjimadagi bitta sodda yoyiq gap o'zbekchada ikkita yoyiq gaplarga aylangan.

Masalan, “Uylardan shovullab suvlar oqdi. Bualar va bolalarning egulari ho'l bo'ldi” – “Звои анивал дома, кусты, детей – bunda ruscha tarjima asllyatga yaqin deb hisoblaymiz, bilvosita o'zbekcha tarjima esa leksik-grammatik xususiyat kasb etgandek, go'yo o'zbek tarjimoni tasviri to'laqonli berish uchun gapni bittaga ko'paytirib bergan. Bunda “grammatik nonmuvofqlik” ni ifodalashiga qaramay bevosita tarjimadan faqatli o'laroq keng mazmun anglatgan. Bevosita ruschada esa so'zma so'z tarjima ma'nosi toraytirgandek xususiyat kasb etaypti.

Asllyatdagi “The doors flew open. The windows flew up.” – ruscha bevosita tarjimada *Двери распахнулись.*” deb berilgan bo'lsa, o'zbekcha bilvosita tarjimada “Eshiklar kang ochildi” deb ikkita gapni tojankorlik xususiyati ko'rsataypti, asllyatda ham “eshik”, ham “dereza” kang ochilib ketganligi tasviri berilyapti. Shu o'rinda ikkita “uslub mazmuni” [1,359] yuzaga kelyapti.

Biz bilamizki, uslub mazmunining ikki tomoni mavjud. Bu: yozuvchi uslubining tarjimon uslubiga ta'siri va tarjimon uslubining yozuvchi uslubiga ta'siri. “Uslubiy moslashtirish asarni ko'proq iqlimlashtirish, yozuvchini “o'zimizniki qilish”[1,359] maqsadiga xizmat qiladi.” deyilgan manbalarda. Aynan har bir shoirning, yozuvchi, tarjimonning o'z san'at asarini yaratishda o'ziga xos uslubi, tematikasi bor.

Shu o'rinda tarjimon-olim G'aytulla Salomov tarjimada uslub haqida shunday ta'kidlagan edi: “Tarjimon asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini sacha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl muxadagi fikrini iloji boricha to'laroq ifodalash talvishida vovadi” [4,37].

Yuqorida berilgan o'zbekcha bilvosita tarjimada ham tarjimon Amir Fayzulla harorat o'zgarishi bilan “Eshiklar kang ochildi” gapi nafaqat derezalar ham ochiqilgini, balki qish fasli turk etyotganligini, inoqdan betoqot odamlarning yolkalaridan qalin kiyimlari tushishi tasviri “kang” ravishini berishi bilan aloqadorlik mazmun kasb etyotganligini, asllyatdagi “The doors flew open. The windows flew up.” gaplari tojankorlik bilan birgina “Eshiklar kang ochildi” bilan ifoda etilyapti, leksik-grammatik xususiyat kasb etyapti.

Tarjima asllyoti paydo bo'libdiki, asllyatni ona tiliga qanday o'girish lozim – so'zma-so'zmi yoki erkin tarzdami degan masala tarjimonlar oldida kundalang turgan muammo sanaladi. Ayrim shaxslar, masalan, XX asrning boshlarida ijod qilgan san'atkorlar, so'zma-so'z tarjimani yoqlab chiqqanlari holda, asllyat faoliyatlarida shu usuldan ko'prok foydalanib kelgan bo'lsalar, ko'pchilik ijodkorlar erkin tarjimani afzal ko'rib, san'atkor asllyatning harfini emas, ruhi, so'zini emas, mazmunini, shaklini emas, unda mujassamlashgan asberotni bera bilishi kerak degan muqta nazarni olg'a surganlar. Ammo masalani nazariy hal qilish lozimligi hech kimning xayoliga kelmagan.

Tarjimaning maqsadi, kitobxonning seviyasi va didi, matn turi kabi qator masalalar muhokama kun tartibiga qo'yilmagan. Nazariy asosning iqlanmaganligi tarjima jarayoniga turlicha vovdashichni keltirib chiqqargan. Bu, o'z navbatida, qator tarjima turklarining vujudga kelishiga sabab bo'lganki, ularning ayriklari ijodiy-ilmiy, ba'zilari illati deb tan olinadi. Quyida ularning ayriklari haqida fikr yuritiladi. Bu tarjima turida asllyat lisoniy vositalari matniy ma'nolari va uslubiy vazifalari umumzalaq tili grammatik qoidalari bilan hamohangiloda qayta yaratiladi. Lisoniy vositalarning milliy-tarixiy, ijtimoiy va obrazli hissiy xususiyatlari asllyatga xos va mos tarzda talqin etiladi. Asar sahifalarida muayyan uslubiy maqsadlar uchun qo'llanilgan fonetik-orfoqopk hamda leksik-grammatik matniy chekinishlar o'z vazifalariga muvofiq muqobil lisoniy vositalar yordamida tiklanadi. Balarning barchasi muallif maqsadining kitobxonga yetib borishi uchun imkon yaratadi. Keyingi tur so'zma-so'z tarjima haqida fikr yuritir olamiz, muallif matnini bijjalab o'girish orqali uning mazmuniy-vazifaviy uyg'unligini sostalashtridigan, hissiy-ta'sirchanlik xususiyatini, badiiy-obrazli asosini xiralashtridigan, tarjima tili ma'yori va madaniyatini barbod etadigan, binobarin, asllyatning tug'al-adekvat tarjimasi sifatida qabul qilib bo'lmaydigan ikkilanmchi matnga aytiladi. Bu tarjima turida asllyat tarkibidagi so'z birikmalari, barqaror iboralar grammatik qurilish, so'z tartibi aksariyat hollarda tarjima tili qonuniyatlariga moslashtirilmaydi. Ko'pchilik lisoniy vositalar matniy holatlariga, vazifaviy jihatlariga, davriy va milliy xususiyatlariga qarab emas, balki lug'aviy ma'nolari asosida o'giriladi. Bu hol milliy-tarixiy va hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarning qo'shimcha xususiyatlardan holi uslubiy betaraf, muris so'z va so'z birikmalari yordamida talqin etilishiga olib keladi. Binobarin, so'zma-so'z tarjima ushud tarjimonlar nazarda tutgan maqsadni - asarning mazmuniy-g'oyaviy xususiyatini kitobxonga to'la-to'kis yetkazib berish kabi vazifani o'tay olmaydi, chunki tarjimon oldida badiiy asarning boshqa bir shaxs tomonidan to'g'ri ma'nodagi, muris lisoniy vositalar yordamida amalga oshirilgan bayoni turadi. Suningh uchun bunday amaliyot turi soxta tarjima usuli deyiladi.

LITERARY CRITICISM

Tarjima va tarjimashunoslik rivojlanishi va muammolariga bag'ishlangan turli mazmunkatlarida badiiy tarjima, muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan mintaqaviy kengash va simpoziumlardagi so'zma-so'z tarjima amaliyoti qattiq qoralanib kelindi, bu haqida ko'pgina tanqidiy fikrlar bayon etildi. A.Sharif o'z ma'ruzasida so'zma-so'z tarjima amaliyotini illatli usul deb hisoblagan bo'lsa, T. Gnedich uning ijodiy ish emas, balki «sirk tomoshasiga o'xshash masxarabozlik» ekanligini qayd etdi. X. Xantemirovning fikricha, «sana yaratilgan so'zma-so'z tarjima» ham aslyyat boyligi va o'ziga xosligini to'la-to'kis talqin etishga o'zlik qiladi, tarjimon va tarjimashunoslarning Moris Torez nomidagi Moskva chet tillar institutida «Tarjima nazariyasi va tarjimonlar tayyorlashning ilmiy asoslari» nomi bilan o'tkazilgan konferensiyasida M.L. Gasparov o'zining «So'zma-so'z tarjima va to'laqonlilik darajasi» deb atalgan ma'ruzasida amaliy faoliyatning ayni turini puch va samarasiz deb baholab, uning badiiy yodgorlik shakli va mazmunining dialektik birligi va butunligini qayta yaratib berishga o'z ekanligini amaliy dalillar zaminida ilmiy asoslab berdi.

Haqiqat shundaki, tarjima xususiyati va tabiati so'zma-so'z amalga oshirilgan tarjima adabiy asar milliyligi va badiiyatini tashkil etadigan barcha unsurlarni juda xira talqin etadi: asar yaratilgan davr buyog'i, uning musiqiyliigi va ritmi, hissiy-obrazli vositalari, personajlari muqoi tasviri, muvaffaqiyatli qo'llanilganligi tufayli ifodaning joziba kuchini oshiradigan yangi til birliklari, yozuvchining individual-ijodiy ushbi – bularning hammasi deyarli yo'qqa chiqariladi [7,15]. Biz tarjima bilan bog'liq sifatlarni ko'rib chiqar ekanmiz, tarjimon yaratgan bo'yoqsiz vositalarda muallif uslubidan ko'ra tarjimon qalamni ko'proq ko'zga tashlanib turadi. Demak, so'zma-so'z tarjimaga mamlekagimizada ilgari xorijiy tillarni puxta egallagan ijodiy ziyolilarning yetishmaganligi tufayli noiloj murojaat qilingan, hozir esa o'zga tillarni mukammal egallagan ijodkorlarning borgan tari ko'plab yetishib chiqayotganligi tufayli unga amaliy faoliyatdan bemaol usqib chiqarilishi lozim b bo'lgan illatli usul sifatida qaraladi. So'zma-so'z tarjima kitobxonni asar mazmunini bilan umumiy tarada tanishtirgani holda, mukammal badiiy tarjima yaratish uchun xomaki mata sifatida xizmat qilishigina mumkin. Shu maqsadda ataylab tayyorlanadigan so'zma-so'z tarjimani ilmiy adabiyotda «taglama» [3,28] deb atashadi. Bu tarjima usuli yordamida o'tgan davrlarda ko'pgina ittifoqdosh respublikalar mualliflari ijod namunalari, shu qatorda o'zbek qalamkashlari asarlari ham rus tiliga tarjima qilinir edi. Taglamadan gona tarjimadan tarjima qilishda ham foydalaniladi.

Yurtimizada olib borilgan tadqiqotlar, xususan, tarjima faoliyati bilan bog'liq jarayonni ko'rib chiqar ekanmiz, Erkin Vohidov Gyotening «Fanto» fojiasini o'zbek tiliga Boris Pasternakning ruscha tarjimasidan tarjima qilinganida shu asarning N. Kolodkovskiy rus tiliga aslyatdan o'girilgani, ruscha tarjimasidan taglama o'rniida foydalanigani va bu matnning unga so'zsis yordami tekkan haqida gapirgan. Shuni ham qayd qilish lozimki, taglama badiiy muqqa xos xususiyatlardan birortasini ham o'rniida mujassam etmasligi tufayli hech qachon nazariy umumlashtirish materialni sifatida xizmat qila olmaydi.

Keyingi tarjima turi tarjima amaliyotining muammoli usullardan bo'lmish bu turiga o'tgan asarning o'rtalarigacha tez-tez murojaat qilib turilgan, bunda tarjimon aslyatning shaklini to'la o'tibordan soqit etgani holda, mazmunini o'z so'zlari bilan sodd va qisqa hikoya qilib bergan. Onda-sonda dialogik muq namunalari tarjimada berilgan bo'lsa-da, personajlar muqoi tasvirini tiklashga e'tibor qilinmagan.

Tarjimon va tarjima munosabati haqida so'z borar ekan, erkin tarjimada ushbiy pryomlar va badiiy-tasviriy vositalar vazifalarini qayta yaratishga deyarli harakat qilinmagan. Oqibatda, muallif yaratgan obrazli, hissiy-ta'sirchan ifodalar mazis bayon darajasiga tushib qolgan. Gohida masala shu darajaga borib yetganki, tarjimonlar parchalar mazmunini, personajlar xususiyatlarini o'zlaricha o'zgartirganlar, butun boshli tasvirlarni o'zlaridan qo'shganlar, asardagi ayrim tasvirlarni tarjimadan tashirib qoldirganlar. Hatto asar personajlari nomlarini ba'zan o'z vatandoshlari nomlari bilan almashtirishgacha borib yetganlar. Bu jarayonda muallif asari tarjimada tanib bo'lmaz darajada o'zgarib ketgan. Natijada asarni muallif yaratgan zaruriy shaklda emas, balki soddalashtirilgan, qisqartirilgan tarada o'qigan o'zga millat kitobxonni muallif ijodi haqida no'to'g'ri tasavvurga ega bo'lgan.

Xususan, aslyat tilidagi bevosita tarjima qila oladigan usta san'atkorlari deyarli bo'lmagan xalqlarga erkin tarjima yo'li bilan bo'lsa-da, asarni yodkamib berish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'rgan tarjimonni qaysidir ma'noda tashvish ekanmiz.

Buqunggi kunda tarjimonlar «ortiqcha talvishlar» bilan o'zlarini «band qilib» yurmasdan, asarlar qanday yaratilgan bo'lsa, ularni o'z tillariga shundayligicha talqin qilishlari, shu yo'l bilan kitobxonlarda asl muxxalar haqida xolisona tasavvur hosil bo'lishiga erishishlari lozim edi.

Zero, tarjimonning ijodkorligi uning hammuallifligida emas, balki aslyatning barcha talvbiy unsurlarini aynan usiday qayta yaratishida namoyon bo'lishi dardkor. Muqobilikka erishish borasida fikrimizni davom ettirar ekanmiz, davom etib kelayotgan ushbiy ijodiy jarayon so'nggi yillarda erkin tarjima amaliyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdiki, keyingi 60-70-yil mobaynida amalga oshirib kelingan tarjimalar aslyat ruhini imkon qadar durust aks etira boshladi, ya'ni tarjimalarda hozirgi kitobxon muqoi

LITERARY CRITICISM

nazaridan nima qayta yaratilishi lozim bo'lsa, hammasini tiklash borasida sa'y-harakatlar olib borilmoqda, amalga oshirilayotgan tarjimalar muvofillik sari intilmoqda.

Tarjima turlari qatorida obrazlashtirilgan (idiomalashtirilgan) tarjima turi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu tarjima turida muallifning individual ijodiga xos turdagi tasvimi yuzaga keltirgan lisoniy vositalar asosida obrazli iboralar, his-tuyg'uni ifoda etadigan so'zlar,

Xulosa qiladigan bo'lsak, tarjima xususiyati va tarjimon uslubi bir-biri bilan bevosita hamohangdek, ammo bu jarayonning muvofiqlik ahamiyat kasb etishi tarjimon tanlovi bilan bog'liqdir. Zero, tarjimon ham yozuvchi singari asarga yangi hayot bag'ishlaydigan, adabiyotga hissa qo'shadigan a'zo sifatida vazifasi mavjud. Badiiy adabiyotda aynan fantastik asar bilvosita tarjimasida tarjimon uslubi va tarjima xususiyatlari bu sohaning turlari va ma'zonlariga muvofiq amalga oshirishda aynan lingvomasadaniy xususiyatlar, terminologik tamoyillar, ingliz va rus tillar grammatik xususiyatining o'zbek tilidan farq qilishi yuqori ko'zga tashlanadi. Bu tanish holatlar Amir Fayzulla tarjimasidagi Rey Bredberi qalamiga mansub "Marsga hujum" asari bilvosita tarjimasida o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR:

1. Abdunabiyev Sumrat Botirovich Tarjimashunoslikda uslub muammosining o'rganilganligi// *Ta'lim filolyati. (Vol.1 ISSUE 1, (2022)).* – P.339
2. Ray Bradbury. *The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of HarperCollinsPublishers, London Bridge Street, London SE1 9GF* Cover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.302
3. М.И.Гаспаров. *Под строчками меры точности. «Теория перевода и научные основы подбора переводчиков».* - Москва, 1993.
4. Саломов Ф. *Таржима санъати. Мақолалар тоълими* – Т.: "Фан", 1993. – Б.325.
5. Р. Д. Бредбери. *Марсианские хроники.* © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013, Ст.306.
6. Рэй Бредбери. *Марсга ҳужум "Янги аср айлоди",* 2016. Б.3.
7. Фаёзулла Саломов *Таржима таълими.* – Тошкент: Фафур Фулом номидagi *Адабиёт ва санъат нашриёти,* 1983. – 189 б.
8. Catford J.C. *Linguistic theory of translation.* – London, New York, 1982. – P. 228.
9. Muminov O., Samarov O. *Translation history.* – Tashkent, 1999. – P. 163.
10. Newmark P. *Approaches to translation.* – London, 1995. – P. 304.
11. Usmonova Zarina Habibovna. *The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isaac Asimov. Eurasian research Bulletin,* 7, 63–65. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>.
12. Erkinova, Y. F. *Negative Politeness. Journal of Critical Reviews,* 7(6), 1249–1255. <https://media.neliti.com/media/publications/344146-negative-politeness-c55f7abc.pdf>.
13. Yuldasheva Feruza Erkinovna. *Politeness markers in spoken language. Euro-Asia Conferences,* 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.
14. Rasulov, Z. *Reduction as the way of the language economy manifestation. Центр научных публикаций (buxdu Uz),* 1(1). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
15. Mustonova, R. M. *Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes,* 30–33. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35>
16. Yunusova, A. *Evaluating co-production as a guiding philosophy for EASP teacher training course development. Центр научных публикаций (buxdu uz),* 25(25). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/download/8314/5315

